

SHAYBONIYLAR DAVLATIDA TARIX ILMI RIVOJI

*Umidjon Sotivoldiyev Xakimjon o'g'li**O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi**akademik litseyi tarix fani o'qituvchisi*

Shayboniylar davrida fan va madaniyatning rivojlanishida mazkur sulola namoyandalarning tutgan o'rni katta bo'lgan. Avvalo, ularning o'zlari nihoyatda o'qimishli shaxslar edilar. Chunonchi, Muhammad Shayboniyxon, Ko'chkinchixon, Ubaydulloxon, Abdulazizxon kabi shayboniylar turkiy va forsiyda she'r bitganlar. Diniy va dunyoviy ilmlarda yetarli salohiyatga ega bo'lganlar. Muhammad Shayboniyxon yoshligida ta'mni Buxoro madrasasida olgan. Ubaydulloxonning musiqa ilmiga katta rag'bat bo'lgani, musiqiy asboblarni chalishi, nozik xusnixat egasi ekanligi ma'lum.

Shayboniylar davrida ham tarix ilmi juda rivoj topgan. XVI asr tarixini yoritib beruvchi "Tavorixi guzidai nusratnoma", Mulla Shodiyning "Fathnoma", Binoiyning "Shayboniynoma", Muhammad Solihning "Shayboniynoma", Abdulloh Nasrullohning "Zubdat al-asror", Fazlulloh Ro'zbexonning "Mehmonnomai Buxoro", Zayniddin Vosifiyning "Badoe ul vaqoye", Hofiz Tanish Buxoriyning "Abdullanoma" kabi mumtoz tarixiy asarlari fikrimiz dalilidir. Bundan tashqari Muhammad Shayboniyxon davrida Binoiyning "Ajoyib ul Maxluqot" geografik asarini ham aytishimiz mumkin.

XV asrning ikkinchi yarmida milliy – madaniy markazi bo'lgan Hirot, XVI asrga kelib o'z mavqeyini yo'qotdi, avval Shayboniylar, keyinchalik esa Eron Safaviylarining chekka shaharlaridan biriga aylanib qoldi. Bu davrga kelib madaniy va adabiy markazlik roli Samarqand va Buxoroga ko'chgandi. Bu shaharlarga faqatgina O'rta Osiyo hududlaridan emas, balki Eron, Afg'oniston, Hindiston shaharlaridan ham turli sohalarning ishtiyoqmandlari kelar edilar. Natijada bu o'lkada o'sha zamon madaniyati va

adabiyotining turli sohalarida ancha – ko'zga ko'ringan vakillar yashab ijod etishgan.

XVI asrda Movarounnahrda adabiyot, tarix fani me'morchilik va tasviriy san'at rivojlanib bordi. Poeziya juda ravnaq topdi. Hasan Buxoriy Nisoriy (1566 yil)ning “Muzakkir ul - ahbob” va Mutribiyning (1604 – 1605 yillar) “Tazkiroti Shuaro” nomli bu davrda O'rta Osiyoda yashab, ijod qilgan ulamolar silsilasi haqidagi asarlar buning dalilidir. Bu asarlarda Samarqand, Buxoro, Toshkent va O'rta Osiyoning boshqa shaharlarida yashab ijod qilgan bir necha yuz adabiyot va fan arboblarning nomlari keltirilgan.

XVI asrning birinchi yarmida Movarounnahrda turkiy tilida adabiy va tarixiy asarlarning paydo bo'lishi turkiy tilga bo'lgan talabni ham oshirib yubordi. “Tarixi guzidayi Nuratnoma” shu sohadagi ilk asarlardandir. Muhammad Solihning “Shayboniynoma” dostoni ham o'zbek tilida yozilgan. Bu ikki asar, garchi Shayboniixonning topshirig'iga ko'ra va ishtiroki bilan yozilgan bo'lsada, har holda O'rta Osiyo xalqlarining tarixi, etnografiyasi va adabiyotiga oid bo'lgan, asoslangan juda ko'plab ma'lumotlarni o'z ichiga olgan.

XVI asrda yashab ijod etgan shoirlardan biri, buyuk shoir, adib, tarixchi va olim Boburdir. Boburnomani A. Beverij Boburga shunday baho bergan edi: “... sahovatliligi, mardligi, talantligi, fanga, san'atga muhabbati va ular bilan muvaffaqiyatli shug'ullanishi jihatidan olib qaraganda, Osiyodagi podsholar ichida Boburga teng keladigan birorta podsho topa olmaymiz”. Bobur 12 yoshidan boshlab umrining oxirigacha deyarli uzluksiz urush va yurishlar bilan band bo'ldi. Lekin, shunga qaramay, u keng va chuqur bilim olgan hamda ajoyib iste'dodi bilan oz davrining yirik madaniyat arboblariidan biri bo'lib yashagan edi. U qayerda bo'lmasin, doimo ilm – fan, san'at va adabiyot namoyondalari bilan yaqindan aloqa bog'lar, ularga homiylik qilar va turli ilmiy – adabiy suhbatlar hamda munozaralar tashkil etib, ularda o'zi ham qatnashar edi. Bobur 16 – 17 yoshlaridan boshlab, badiiy ijodiyot bilan shug'ullanadi. U “Boburnoma”da 906 – 907 yillar (1449 – 1500 yillar) voqeasi haqida so'zlar ekan,

“Ul fursatlarda biror ikki qator bayt olishuv erdim, vam g’azal tugamaydir erdim” deydi. Bobur o’zbek klassik adabiyotining, ayniqsa, Alisher Navoiyning boy adabiy merosini hamda fors, tojik adabiyoti ustoz san’atkorlarining adabiy tajribalarini o’rganadi. Boburni eng yirik va eng ajoyib asari uni butun dunyoga tanitgan. Yevropa sharqshunoslari, jumladan, X. Vamberi tomonidan Yuliy Sezarning kitoblari bilan bir qatorga quyilgan kitobi “Boburnoma”dir. Bu asar tarixiy manba bo’lishi bilan birga o’zbek prozasining qimmatli yodgorligidir, shu bilan birga “Boburnoma” geografiya, etnografiya, tabiat, xalq tabobati va boshqa ilmiy sohalar boyicha ham qimmatli ma’lumotlar beradi. Boburning “Boburnoma”dan tashqari yana bir qancha asarlari bor, bular islom dini huquqshunosligi va shariat aqidalarini bayon etuvchi “Mubayyan” nomli she’riy risolasi, “Validiya” nomi bilan atalgan tasavvufga oid kitobi, “Xatti Boburiy” nomi bilan mashhur bo’lgan alifbo jadvalidan iborat asarlar shular jumlasidandir. Abdulla ibn Muhammadning “Zubdat ul asror” nomli tarixiy asari XVI asrning birinchi choragida yozilgan asar hisoblanib, bu asarda Shayboniyxonning Ismoil Safaviy bilan qonli to’qnashuvi, Muhammad Shayboniyxonning o’limiga sabab bo’lgan voqealar bayon etilgan..

Shuningdek, Rashididdin va Sharofiddin Ali Yazdiyning tarixiy asarlari o’zbek tiliga tarjima qilinadi. Mirzo Ulug’bekka bag’ishlangan “Muntahabi Jome” va “Tavorixiy shoxiy” kabi asarlarning o’zbek tiliga tarjima qilinganligi o’zbek tilining ta’sir doirasi kengayib borganidan dalolat beradi. O’z zamonining tarixiga doir “Sharafnomai shoxiy” degan katta asarini Hof’z Tanish Buxoriy yozgan bo’lib diniy-siyosiy voqealarga boy. Bu asarda O’rta Osiyoning ijtimoiy – iqtisodiy tarixiga oid juda ajoyib ma’lumotlar bor. Shuningdek, bu davrda ayrim Shayboniy hukmdorlar diniy-ma’rifiy asarlar yozishda qatnashganlar. Shayboniyxonning ham o’z zamonasining o’qimishli, ulamolaridan biri edi. Bu haqda X. Vamberi shunday yozadi, u har holda o’zining Eron safaviylari tarafidan to’qib chiqarilganidek, nimani xohlasa, shuni bajarib yuruvchi vahshiy bir hukmdor emas edi. Masalan, u zamonning ulamolariga katta hurmat, ularning

so'zlarigq itoat qilardi, shuningdek barcha urush safarlarida o'zi bilan barobar kichkina go'zal kutubxonasini olib yurar, Amir Temur kabi doimo diniy munozaralarga qatnashgan. Qur'onning ba'zi oyatlari haqida Hirotning peshqadam tafsirchilari bo'lgan qozi Ixtiyor va Muhammad Yusuf bilan tafsir borasida munozaralar qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ag'zamxodjayev S. Turkiston muxtoriyati. Toshkent: Ma'naviyat, 2000. 168 b.
2. Aliyev A. Mahmudxo'ja Behbudiy.- T.1994.-39-b.
Shadmanova S. Turkiston tarixi matbuot ko'zgusida(1870-1917) - Toshkent, 2011.
3. D. Alimova. O'zbekiston mustabid tuzum davrida: siyosiy va mafkuraviy tazyiq oqibatlari.- Toshkent, 2000.
4. Choriyev A. Turkistonda jadidchilik harakati "O'zbekiston tarixi" fani bo'yicha mazkur mavzudan uslubiy qo'llanma. Toshkent-2010.- 152-b.